



XIII-XIV ASR ME'MORCHILIGINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Maqsudbek Akramjonov Anvarjon o'g'li

Namangan Davlat Pedagogika Instituti magistranti O'zbekiston

Email: teachermaqsudbek@gmail.com

ORCID ID: 0009-0007-2801-7743

Abstract: *after the Mongol invasion of 1220, the development of Samarkand came to a halt. The invaders destroyed the city's structures, burned its buildings, and leveled its architectural monuments. The water supply system of Afrosiyob was also ruined, turning it into a lifeless hill. The Mongols looted everything, burned valuable books, and repurposed book chests into feeding troughs. Not only Samarkand but also Bukhara, Nakhshab (Karshi), Termez, and other cities were captured, leading to the forced relocation of craftsmen to the Far East and Khorasan. Major cultural centers such as Marv and Nishapur were reduced to ruins.*

Keywords: *Mongol invasion, Samarkand, Bukhara, Central Asia, destruction, cultural heritage, architecture, Sarbadar movement, urban revival.*

Аннотация: *после монгольского нашествия 1220 года развитие Самарканда остановилось. Захватчики разрушили городские сооружения, сожгли здания и уничтожили архитектурные памятники. Была разрушена система водоснабжения Афросиаба, превратив его в безжизненный холм. Монголы разграбили всё, уничтожили ценные книги, а книжные сундуки превратили в кормушки. Захвачены были не только Самарканд, но и Бухара, Нахшаб (Карши), Термез и другие города, а ремесленников насильно переселили на Дальний Восток и в Хорасан. Крупные культурные центры, такие как Мерв и Нишапур, были превращены в руины.*



Ключевые слова: монгольское нашествие, Самарканд, Бухара, Центральная Азия, разрушение, культурное наследие, архитектура, движение сарбадоров, возрождение городов.

Annotatsiya: 1220-yilgi mo'g'ullar bosqinidan so'ng Samarqand rivojlanishi to'xtab qoldi. Bosqinchilar shahar inshootlarini vayron qildi, binolarni yoqib yubordi va me'morchilik yodgorliklarini yer bilan yakson qildi. Afrosiyobning suv ta'minoti tizimi buzilib, u jonsiz tepalikka aylangan. Mo'g'ullar har narsani talon-taroj qilib, qimmatli kitoblarni yoqib yuborgan va ularni saqlash uchun mo'ljallangan sandiqlarni ot-ulovlar uchun yemxona qilib ishlatgan. Faqat Samarqand emas, balki Buxoro, Naxshab (Qarshi), Termiz va boshqa shaharlarga ham hujum qilingan, hunarmandlar esa majburan Sharq va Xuroson tomon olib ketilgan. Marv va Nishopur kabi yirik madaniy markazlar vayron bo'lgan.

Kalit so'zlar: Mo'g'ullar bosqini, Samarqand, Buxoro, Markaziy Osiyo, vayronagarchilik, madaniy meros, me'morchilik, sarbadorlar harakati, shaharlarning tiklanishi.

1220-yil bahorda Chingizxon qo'shinlari Samarqandni bosib olgandan so'ng rivojlanish ancha to'xtab qolgan, istilochilar tomonidan shahardagi inshootlar yondirib yuborilgan va o'sha davrgacha saqlangan me'morchilik yodgorliklari yer bilan yakson qilingan. Afrosiyobni suv bilan ta'minlovchi jo'yi Aziz mo'g'ul bosqinchilari tomonidan buzib tashlangan. Shundan so'ng Afrosiyob jonsiz tepalikka o'xshab qolgan.

Chingizxon qadimgi Afrosiyobni bosib olgandan keyin bu joy vayrona qilinganligi sababli shahar Afrosiyobnin janub tomoniga qarab rivoj topadi. Mo'g'ullar hammayoqni talon-taroj qildilar. Qimmatli kitoblar ot-ulovlar oyog'i ostiga tashlanib, kitob saqlangan sandiqlar esa oxurga aylantirildi. Chingizxonning o'zi shaxsan Buxorodagi o'sha paytda yog'ochdan barpo etilgan Masjidi Kalonni va shaharning qator boshqa imortalarini yoqib yuborishga boshchilik qildi. So'ng



1221-yilda Samarqand, undan so`ng Naxshab (Qarshi), Termiz va boshqa shaharlar qo`lga kiritildi. Imorat va bog` ustalari, ipak matolar to`quvchi hunarmadlar Uzoq Sharqqa hamda Xurosonga olib ketildi. O`zining ajabtovur tarixiy madrasalari bilan mashhur bo`lgan Marv va mag`rur Nishopur xarob etildi. Ray, Sheroz, Isfahon va boshqa shaharlar ham shu ko`yga solindi.

O`rta Osiyo madaniy taraqqiyoti bir yarim asrdan ziyodroq davr davomida kishanlab qo`yildi. Bu davrdagi shaharlar taraqqiyoti va me`morchilik sohasining rivoji haqida ma`lumotlar juda ham oz. Xalq ommasining bosqinchilarga va feodal zulmiga noroziligi XIV asrning o`rtalari va ikkinchi yarmida kuchli ozodlik harakati - sarbadorlar harakatini kelib chiqishiga olib kelgan va bu harakat oxir-oqibat mo`g`ullarni ketishiga sababchi bo`lgan.¹

Mo`g`ullar bosqini o`lkamizning moddiy va ma`naviy madaniyati taraqqiyotini bir necha yuz yillar orqaga surib yubordi. Asrlar davomida xalqimizning aql-zakovati bilan bunyod etilgan go`zal shahar va qishloqlar, osmono`par tarixiy qurilish obidalari, binokorlik va me`morchilik san`atining nodir va betakror nusxalari yer bilan yakson qilindi, ularning kuli ko`kka sovrildi. Ayniqsa, ma`naviy merosimiz ko`rgan zararni til bilan ifoda etish qiyin. Yozma manbalar, nodir kitoblar yondirildi, oyoqostida toptaldi.

Mo`g`ullar fan va madaniyat arboblari, olim-u fuzalolar, shoir va yozuvchilar — xalqimizning ming-minglab ulug` farzandlarini yoppasiga qirib tashladilar yoki qul qilib asir sifatida Mo`g`ulistonga olib ketdilar. Madaniy hayotga shu qadar katta zarba berildiki, uni XIV asrning yarmilariga qadar ham tiklab bo`lmadi. XIII asrning ikkinchi yarmida va XIV asrning boshlaridan e`tiboran shahar va qishloqlarda xo`jalik hayotining jonlanishi bilan madaniy sohada ham ba`zi bir tarmoqlarning oyoqqa tura boshlashi ko`zga tashlanadi. Bu shaharsozlik, binokorlik va me`morchilikka aloqador bo`lgan sohalardir. Shu davrda Movarounnahr va Xorazmda qad

¹ Shamsutdinov R. Karimov Sh. "Vatan tarixi" birinchi kitob. —T.: "Sharq", 2010. —B.331



ko'targan va bizning kunlargacha yetib kelgan tarixiy san'at obidalarini misol tariqasida ko'rsatib o'tish mumkin. Buxoro shahridagi Sayfiddin Boharziy, Bayonqulixon maqbaralari, Samarqanddagi Shohizinda ansamblining Qusam Ibn Abbos maqbarasining ziyoratxonasi, ko'hna Urganjdagi Najmiddin Kubro va To'rabek xonim maqbarasi, Xo'janddagi (keyinchalik u harob bo'lgan) Duvoxon maqbarasi va boshqalar ana shular jumlasidandir.

XIII asr o'rtalarida Buxoroda qurilgan «Mas'udiya» va «Xoniya» deb nomlangan ajoyib ikkita madrasa binosi va Ko'hna Urganjdagi balandligi 62 metrga teng bo'lgan ulkan qo'sh masjid dastasi ulug' xalqimiz moddiy madaniyatining buyuk namunasi.

Sayfiddin Boharziy maqbarasi (1-ilovaga qarang) - Buxorodagi me'moriy yodgorlik. Buxoroning sharqiy qismi (eski Fathobod mavzei) da 2 maqbara — Bayonqulixon maqbarasi va Sayfiddin Boharziy maqbarasi bunyod etilgan. Sayfiddin Boharziy maqbarasining kichik go'rxonasi (XIII asrning 2-yarmiga oid) va ziyoratxonasi (XIV asrning 2-yarmi) charxi gumbazli. Bosh tarzidagi peshtoq chuqur ravoqli, 2 yoniga guldastalar ishlangan. Peshtoq va guldasta oralig'idagi yassi mehrobiy tokchalarga tuynuklar qilingan. Peshtoq yuqorisida ravokli darchalar bor. Ziyoratxona va go'rxona ichidagi gumbaz osti bag'ali 8 va 16 qirrali muqarnas bezaklar bilan to'ldirilgan. Maqbaraga Shayx Sayfiddin Boharziy, uning 2 o'g'li - Jamoliddin Muhammad va Mazhariddin Mutahhar, shuningdek, nevarasi Abu Mufaxir Yahyo, evaralari Xovand Burhoniddin, Ruhiddin Shayx Dovudlar dafn etilgan².

Amir Temur Buxoroga tashrif buyurganda Shayx qabrini albatta ziyorat qilgan. Uning farmoni bilan maqbara obod qilinib, ziyoratxona va sharqiy peshtoq qurilgan. Shayx qabri ustidagi yog'och sag'ananing yasalish uslubi, zarhal bezaklari Amir Temur davri yog'och o'ymakorligi san'atining noyob yodgorligi hisoblanadi. Sag'anada tug'ilgan va vafot etgan sana, Qur'ondan oyatlar, Shayxni

² Berdimuhammedov A. Amir Temutning Samarqanddagi bog'lari. Turkiston, 1992-yil. B: 123-124.



madh etuvchi madhiyalar, rang-barang naqshlar o‘zaro uyg‘unlashgan. Mustaqillikdan keyin Sayfiddin Boharziy maqbarasi qayta ta’mir lanib, yodgorlik atrofida go‘zal Fathobod bog‘i bunyod etirildi.

Bayonqulixon maqbarasi - O‘rta Osiyo me’morligi noyob namunasi (XIV asr o‘rtasi). Buxorodagi shayxul olam Sayfiddin Boharziy maqbarasi yaqinida Chig‘atoy ulusi xoni Bayonqulixon qabri ustiga qurilgan. Maqbara binosi mo‘jaz va serhasham. Ayniqsa peshtoqi mayda va nafis naqshga, sirkor bezaklarga boy. Ichkarisi gumbazli, sirkor bezakli ziyoratxona va kichik go‘rxonadan iborat. Ular lojuvard, feruza, oq rangli, islmiy va girih naqshli o‘ymakor sopol parchinlari bilan ishlangan. O‘rta Osiyo maqbaralaridagi mana shunday rangdor manzarali bezak uslubi Shohizinda ansambli (Samarqand) da yanada rivoj topgan. Bayonqulixon maqbarasi Amir Temur davri me’morligining ilk namunalaridan hisoblanadi³.

Najmiddin Kubro maqbarasi — Ko‘hna Urganchdagi me’moriy yodgorlik bo‘lib, u XIV asrning 20-30-yillariga oid. Sufiylikdagi Kubraviylik oqimining asoschisi, shoir, olim va shayx Najmiddin Kubro nomi bilan bog‘liq. Maqbara 3 xona (Najmiddin Kubro sag‘anasi joylashgan katta xona, bir necha qabrlari bo‘lgan kichik xona va ziyoratxona)dan iborat. Miyonsaroy va xonalar gumbaz tomli, o‘zaro bir-biri bilan bog‘langan. Bosh tarzi chuqur ravoqli, peshtoq gumbazli, koshinkori naqsh bilan hoshiyalangan, yozuvlarida qurilgan yili saqlangan, Peshtoq yuqorisi muqarnasli sharafa bilan yakunlangan. Peshtoq devorlari va sag‘ana oq, ko‘k, havo rang va jigarrang koshin bilan qoplangan. Yog‘och o‘ymakorligida ishlangan eshigiga islmiy naqsh tushirilgan. Katta xonaning ichki gumbaz osti bag‘ali qalqonsimon, 16 qirrali, 4 burchagi toqu ravoqli, ganchkori muqarnaslar bilan bezatilgan.

Xona o‘rtasidagi sag‘ana o‘ziga xos milliy uslubda ishlangan. Bu keyinchalik Xorazm me’moriy yodgorliklarida namuna sifatida keng qo‘llanilgan.

³ Qulmatov Sh. Berdimuhammedov A. Samarqand yodigorliklari. –T.: Imom Buxoriy xalqaro markazi, 2017. –B.36



Najmiddin kubro maqbarasida Xorazm me'morligida musavvir va koshinpazlar tomonidan erishilgan barcha yutuqlar namoyon bo'lgan.⁴

XIV asr oxiri va XV asr o'rtalari Temuriylar davridir Amir Temur davlati Volgadan Gangagacha, Tyanshandan Bosforgacha bo'lgan hududlarni o'z tarkibiga olgan. Amir Temur tomonidan Turk armiyasi tor-mor qilinib, uning sultoni Boyazid ham asir olingan. Amir Temur podshohligi davrida Samarqandmamlakatning poytaxtiga aylanadi va u shahar jahonga mashhur bo'ladi. Temur va temuriylar davrida Samarqand o'zini o'nglab olib, shahar birun va rabotga butunlay ko'chib chiqqan va rivojlanishilgarilab ketgan. Bu davrda ko'p tarmoqlar singari me'morchilik va binokorlik ishlari ham gullab yashnagan. Samarqand nihoyatda obod va ko'kalamzor shaharga aylanadi.

Amir Temur o'zining tug'ilgan yurti Shahrisabzni shaharga aylantirgan. U yerda 1380-yilda Oqsaroy qasrini, keyinchalik to'satdan vafot etgan o'g'li Jahongir maqbarasini qurdirgan. Shahrisabzdagi Oqsaroyni xorazmlik ustalarga qurdirgan. Binoni bunyod etish qariyb 20 yilga cho'zilgan. Uning qurilishi 1403-yillardan keyinroq bitgan. Oqsaroy peshtoqining ikki chekkasi va saroyning bir qismi saqlanib qolgan. **230 yil muqaddam qulab tushgan peshtoqning eni 22,5 m, balandligi 40 m bo'lgan. Toqi ustidagi ravoqlari bilan uning umumiy balandligi 50 m dan oshgan.**

Qolgan qismining hozirgi balandligi 38 m ni tashkil etadi. Salobatlilik va go'zallikka g'ishtlarning yaxlit bo'lib ko'rinishini ta'minlash — old va shimoliy devor yuzasini sirkor parchinlar bilan bir tekisda ishlash tufayli erishilgan. Gumbazning ichi va yonlariga burchaklardagi minoralargakoshin - g'ishtlardan qalqon shaklidagi geom etrik naqshlar ishlangan. Bu naqshlar silliqlangan g'isht va feruza rangli sirkor parchindan yozilgan kufiy xatlar fonida ko'k yo'g'on belboqqao'xshash kompozitsiyani tashkil etgan. Devorlardagi turli tuman ranglarning jilosi, koshinkor syujetlar, tarixiy,

⁴ https://uz.wikipedia.org/wiki/Najmiddin_Kubro_maqbarasi



falsafiy va diniy mavzudagi kufiy, suls yozuvlari, islmiy, geom etrik va o'simliksimon naqshlarning o'zaro uyg'unligi binoga noyob va sehrli mazmun baxsh etgan.

Rangining oy yorug'ida jilolanib -oqarib ko'rinishidan bino Oqsaroy deb nomlangan. Temuriylar davrining ikkinchi bosqichida me'morchilikda qo'sh gumbazlar yaratish odat tusiga kirgan. U davr arxitekturasida shakllarning boyishi, dekorativ elementlarning ko'payishi, rangning ko'p ishlatilishi va devorlarga, ayniqsa inshootlar fasadlariga nihoyatda chiroyli va rango-rang pardoz berilishi serlo ishlanishi bilan ham xarakterlidir. XV asrning ikkinchi yarimda dekorativ pardozlashda yangi texnik pardozlash — kundal paydo bo'lgan. Kundalda chinni sopol yoki chinni relyefli bezakka to'la suvi yuritilgan. Monumental me'morchilikda binolarning rejasi murakkablasha borgan.⁵

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ahmedov M. O'rta Osiyo me'morchilik tarixi. –T.: O'zbekiston, 1995.
2. Akramjonov, M., & Davronbayev, I. (2024). *History pedagogy for the digital age: Embracing technology in the classroom*. MASTERS, 2(12), 25-28.
3. Akramjonov, M., & Khaydarov, Z. U. (2025). *Innovative approaches to teaching history in the 21st century*. Научный Фокус, 2(21), 300-302.
4. Khaydarov, Z., & Akramjonov, M. (2025). *Babur: Conqueror, warlord, and cultural pioneer. Models and Methods for Increasing the Efficiency of Innovative Research*, 4(42), 83-86.
5. Berdimuhammedov A. Amir Temutning Samarqanddagi bog'lari. Turkiston, 1992-yil.
6. Vaxitov M. Mirzayev Sh. Me'morchilik. T.: "Tafakkur"- 2010.
7. Qulmatov Sh. Berdimuhammedov A. Samarqand yodigorliklari. –T.: Imom Buxoriy xalqaro markazi, 2017.
8. Shamsutdinov R. Karimov Sh. "Vatan tarixi" birinchi kitob. –T.: "Sharq", 2010.

⁵ Vaxitov M. Mirzayev Sh. Me'morchilik. T.: "Tafakkur"- 2010. B.111